
EHTIYOJMAND FUQAROLAR DOIMIY E'TIBORDA



Ehtiyojmand fuqarolar doimiy e'tiborda

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Respublikamizda olib borilayotgan tizimli ishlarning zamirida inson manfaati mujassam. Zero bu buyuk zaminda inson qadri azizdir.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Farg'ona viloyati qo'riqlash boshqarmasi So'x tumani qo'riqlash bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Rustamjon Mamajonovning so'zlariga ko'ra, mazkur idora vakillari tumandagi kam ta'minlangan va ijtimoiy ko'makga muhtoj fuqarolar holidan muntazam xabar olib, ularga sovg'alar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradilar.

Bu safar tumanimizning milliy gvardiyachilari Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini "Sabohat" ko'chasi, 10-uyda yashovchi "Yoshlar daftari" ro'yxatida turuvchi fuqaro Shohsanam Qudratillayeva yashash sharoitidan xabar olishdi. Berilgan e'tibor uchun xursand bo'lgan fuqaro barcha tashabbuskorlarga samimiy so'zlar bilan minnatdorchilik bildirdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-06-10 15:37:32